

TASVIRIY SAN'AT NAFOSAT TARBIYASINING ASOSIY OMILI

Karimov Xamidbek Otaxanovich,
Urganch davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Ibadullayev Sobirjon Egamberganovich,
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda «estetik boy dunyoqarashni» shakllantirishga qaratilgan. Zero, go'zallik ob'ektiv borliqdagi hamma narsa va hodisalarda mujassam bo'lib, u insonning his-tuyg'ulariga kuchli emotsional ta'sir etadi, uning ongi, qalbini poklaydi, uni ezgu va ijodiy ishlarga undaydi.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, estetik tarbiya, akademik, nafosat tarbiyasi, pedagog V.A.Suxomlinskiy, kompleks, tasviriy san'at.

Jamiyatimizdagi hozirgi ijtimoiy - madaniy jarayon o'rta umumta'lim maktablari, kasb-hunar ta'limini shakllantirish ishlari bilan bog'lanib ketadi. Shuning uchun nafosat tarbiyasi omillarining eng asosiysi deb tasviriy san'atni olamiz. Hozirgi kunda tasviriy san'at keng omma orasida ham tushunarli ko'rinishlarda o'zini namoyon qilmoqda.

Birgina Xorazm vohasining keyingi bir necha yil davomida o'zgarib boshqacha qiyofaga kirishi zamirida ham tasviriy san'at yotadi. Chunki barcha bezaklar, go'zal ko'rinishlarni namoyon qilishda tasviriy san'atning o'rni beqiyosdir. Shahar, qishloq, uy ko'rinishlari estetik dunyoning qanchalik shakllangani bilan ifoda etiladi.

Bugungi kunda estetik tarbiyani keng joriy etish vositasi bo'lib hisoblangan tasviriy san'atda ma'lum qiyinchiliklar bor. O'quv jarayonlarida tasviriy san'atning estetik tarbiyasini shakllantirishda pedagoglarning kasbiy mahoratlarida ayrim kamchiliklar bor. Zero, estetik tarbiya shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimi hisoblanadi.

Har qanday estetik tarbiyaning asosi tasviriy san'at ekan, uning tarixi, o'ziga xosligi va turli janrlarini bilmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki tasviriy san'at asarlarining alohida o'rni borligini ta'kidlashimiz o'rnlidir. Agar ana shu masalalar etarli tarzda amalga oshirilsa, o'rganilsa etuk nafosat tarbiyasini o'ziga jam qilgan yoshlarni tarbiyalash mumkin bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, estetik tarbiya san'atsiz amalga oshmaydi.

Yangilanish - davrimizning jahon hamjamiyatidagi xarakterli belgilaridan bo'lib hisoblanadi. Kompyuter texnologiyasi, fan, texnika, yangilanishga bo'lgan qiziqishlar bir jihatdan estetik tarbiyaga bo'layotgan qiziqishlarni kamaytirishi mumkindek ko'rinadi. Buning ustiga fan texnikadagi rivojlanishlar yangi zamon estetik yuksalishiga ehtiyoj sezmoqda. Chunki yangi davr quruvchisi avvalo har tomonlama etuk, komil va ma'naviy barkamol inson bo'lishi lozimdir. Estetik tarbiyaning ilmiy asoslarini va xususiy masalalarni hal qilishda pedagogika fani

go`zallik haqidagi fan bilan birgalikda, milliy meros an`analariga asosan turlicha foydalanaveradi.

Estetik tarbiya tabiat, borliqdagi narsalarga, san`atdagi go`zallikni idrok qilish hamda to`g`ri tushunish qobiliyatini tarbiyalash, estetik did, qarashlar, san`at va hayotda go`zallik yaratishda ishtirok etish ishtiyoqi va qobiliyatini o`stirish bilan izohlanadi.

Pedagogikada estetik tarbiya murakkab kompleks tushuncha sifatida qaraladi. U nafasatga yo`naltirilgan tuyg`ularni, san`atdagi, tabiat, mehnat faoliyatidagi kishilarning hatti - harakatlaridagi go`zallikni emotsional qiziqishlarni tarkib toptirish nafasat tarbiyasining tarkibiy qismidir.

Tasviriy san`at haqidagi bilimlar orqali estetik madaniyatning ong, bilimlar darajasini tashkil etuvchi tasavvur, tushuncha, qarash, did tarkib topadi. Bunda shaxsiy estetik g`oyalar alohida ahamiyatga ega bo`ladi. Insonlar go`zallikni, xunuklikdan, haqiqiy chiroyli soxtasidan farq qilishga imkon yaratuvchi estetik didni, madaniyatni muhim belgisidir. Tasviriy san`atda estetik qiziqish va qarashlar qobiliyati insonning atrof-muhitga bo`lgan estetik munosabatini ko`rsatkichi hisoblanadi.

Akademik olim, pedagog V.A.Suxomlinskiy aytganidek, «Bolalik davridagi fikrlash, tafakkur jarayonlari tevarak dunyodagi jonli, yorqin, yaqqol ko`rinadigan narsalar bilan iloji boricha chambarchas bog`liq bo`lishi lozim. Idrokning emotsional to`laligi o`quvchilarni ijodiyotga boshlovchi omildir». Tasviriy san`at insonlarning his – tuyg`ulariga badiiy obraz orqali ta`sir etib, ularda yorqin kechinmalar uyg`otadi va turli xil tuyg`ularning hosil bo`lishiga yordam beradi.

Shu boisdan tasviriy san`at darslarining o`ziga xos jihatlari ham o`quvchilarni estetik tarbiyalashning vositalarini belgilab beradi. Tasviriy san`at mashg`ulotlarida qog`ozni ifloslantirishiga yo`l qo`yilmaydi. Har qanday rasmni chizganda toza, chiroyli ko`rinishli bo`lishiga alohida e`tibor beriladi.

Har qanday holatda ham o`quvchilar tomonidan chizilgan rasmlar yoki bezatish ishlari saqlanib turilishi va albatta zarur bo`lganda oldingi ishlar bilan solishtirilib borilsa yaxshi natijalar beradi. Bu talablar tasviriy san`at mashg`ulotlarida hamma o`quvchilar uchun ham birdek qo`yilishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san`at fanidan o`quvchilarning bilimi, ko`nikma va malakasi takomillashib borishi bilan birga, ularning estetik talablari ham oshib boradi. Shuning uchun o`quvchilarning mustaqil ishni bajarishiga, ijod qila olishiga, chiroyli va to`g`ri rasm chiza olishlariga erishish juda muhimdir. O`quvchilarni nafasat tarbiyasi bilan qurollantirish uchun biz bilamizki ularning rasm chizish, tushunish va rassomlar asarlarini his qilib tushunishlariga bog`liq bo`ladi. V.A.Suxomlinskiy o`zining «O`quvchining ma`naviy dunyosi» nomli qo`llanmasida rasm solishning kichik yoshdagi bolalar ma`naviy rivojlanishiga ta`siri haqidagi qiziqishlari, kuzatishlari keltirib o`tiladi.

Maktabda to`rt yil davomida shunday tajriba o`tkazilgan ekan: yangi bilib olgan yoki boshidan kechirgan voqeasi tufayli o`quvchida paydo bo`lgan zo`r ko`tarinki kayfiyat vaqtida, o`qituvchilar o`z tarbiyalanuvchilariga, kechinmalarini rasmlarda ifodalab berishni so`ragan ekanlar. O`quvchilar buyum va ertak obrazlarini zo`r ishtiyoq bilan chizadilar va o`zlarining tasvirlagan narsalariga bo`lgan munosabatlarini ham ifodalab beradi.

Keyingi kuzatishlarda bolalar boshidan kechirganlarini rasmda aks ettirib bera boshlaydilar. Ammo bolalarda tasvirlash uchun his tuyg`ulari, fikrlash faoliyatlarining aniqligi bilan birlaridan farqlanadi. Ularni estetik tarbiyasiga ham bu samarali ta'sir o`tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Barkamol avlod orzusi. T; Sharq, 1998 y.
2. Abdirasilov S, Tolipov N. Tasviriy san'at o`qitish metodikasi (amaliy mashg`ulotlar) „Aloqachi” nashriyoti Toshkent 2007 y.
3. Abdirasilov S. Tasviriy san'at metodikasi Toshkent - „Ilm Ziyo” -2006 y.
4. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o`qitish metodikasi Toshkent O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi „Fan” nashriyoti 2004 y.